

HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH – MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Asatullayev Fatxulla

Annotatsiya: *Ushbu tezisda investitsiyalarning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini, O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarning so'nggi yillardagi dinamikasi, moliyalashtirish manbalari tarkibi hamda hududlar kesimidagi taqsimlanishi tahlil qilinadi. Tahlil natijalari asosida investitsiya faolligi past bo'lgan hududlarga sarmoya jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsiya, asosiy kapital, mintaqaviy iqtisodiyot, xorijiy investitsiyalar, hududiy rivojlanish, investitsiya muhiti.*

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda hududlarning eksport salohiyatini oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ayni paytda milliy iqtisodiyot rivojlanishining hududiy jihati alohida e'tiborni talab etadi, chunki investitsiyalarning mintaqalar kesimida notekis taqsimlanishi hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning saqlanib qolishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy nazariyada investitsiyalarning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri multiplikator samarasi orqali izohlanadi: hududga kiritilgan har bir so'm investitsiya qurilish, transport, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'shimcha talab yaratib, yalpi hududiy mahsulotning investitsiya hajmidan bir necha barobar ortiq o'sishini ta'minlashi mumkin. Bundan tashqari, investitsiyalar texnologiyalar transferi, boshqaruv tajribasining tarqalishi va mahalliy kadrlar malakasining oshishi kabi bilvosita samaralarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hududlarni jahon bozorlariga integratsiya qilish, qo'shilgan qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkonini beradi. Shu bois investitsiya muhitini yaxshilash va sarmoyalarni hududlarga jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning markaziy masalasi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish va hududlarga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi izchil o'sib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 591,1 trln so'mlik asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 10,5 %ga oshdi. So'nggi besh yil davomida ushbu ko'rsatkich 2021-yildagi 236,6 trln so'mdan qariyb

1,8 barobarga o'sdi, bu esa mamlakatda investitsiya faolligining yuqori darajada saqlanib turganidan dalolat beradi.

Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibida markazlashmagan investitsiyalar yetakchi o'rin egallaydi – ularning ulushi 2025-yilda jami hajmning 89,4 %ini tashkil etdi. Markazlashgan manbalar (respublika budjeti – 4,7 %, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – 0,4 %, davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 5,5 %) ulushining nisbatan pastligi bozor mexanizmlarining faollashuvi, korxonalar va xususiy sektorning investitsiya jarayonlaridagi rolining ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarning jadal o'sishi e'tiborga molik: 2025-yilda ular 281,1 trln so'mni (22,4 mlrd AQSH dollari) tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 46,9 %ga oshdi va jami investitsiyalardagi ulushi 36,0 %dan 47,5 %ga ko'tarildi. Umuman olganda, asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 33,5 mlrd AQSH dollari yoki 422,1 trln so'mga yetdi.

Investitsiyalarning hududlar kesimidagi taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (2025-yil)

Hududlar	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	Xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi	591 141,0	71,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	27 010,1	73,2
Andijon	32 909,9	77,7
Buxoro	42 916,0	76,9
Jizzax	24 889,9	75,5
Qashqadaryo	39 876,0	73,3
Navoiy	43 113,2	82,0
Namangan	61 125,3	82,3
Samarqand	38 281,9	67,0
Surxondaryo	22 758,4	65,9
Sirdaryo	17 227,2	75,3
Toshkent viloyati	79 352,0	67,1
Farg'ona	32 466,8	71,8
Xorazm	22 621,2	67,9
Toshkent sh.	105 708,3	61,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, investitsiyalarning mintaqalararo taqsimlanishida sezilarli farqlar mavjud. 2025-yilda eng katta investitsiya hajmi Toshkent shahri (105,7 trln so'm), Toshkent viloyati (79,4 trln so'm) va Namangan viloyati (61,1 trln so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Eng kam ko'rsatkich esa Sirdaryo (17,2 trln so'm), Xorazm (22,6 trln so'm) va Surxondaryo (22,8 trln so'm) viloyatlarida qayd etildi. Demak, eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq olti barobardan ortiqni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, ayrim viloyatlarda xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi respublika o'rtacha darajasidan (71,4 %) yuqori: Namangan viloyatida 82,3 %, Navoiy viloyatida 82,0 %, Andijon viloyatida 77,7 %. Bu mazkur hududlarda yirik investitsiya loyihalarining faol amalga oshirilayotganini anglatadi. Aksincha, Toshkent shahrida xorijiy manbalar ulushi nisbatan past (61,0 %) bo'lib, poytaxtda korxona mablag'lari (26,0 %) muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda – 2025-yilda ushbu sohaga 160,5 trln so'm yoki jami investitsiyalarning 27,2 %i yo'naltirildi. Shuningdek, elektr energiyasi, gaz ta'minoti (13,3 %), tog'-kon sanoati (9,9 %), qishloq xo'jaligi (8,7 %) va turar-joy qurilishi (7,9 %) sohalari ham investitsiyalar oqimida salmoqli o'rin tutdi. Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida ham ishlab chiqarish sanoatining ulushi eng yuqori (33,2 %) bo'lib, bu iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va sanoatlashtirish siyosatining amaliy natijasidir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hududlarga investitsiya jalb qilishda maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat parklari va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash agentliklari samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasida infratuzilma bilan to'liq ta'minlangan tayyor sanoat maydonchalarini taqdim etish, «yagona darcha» tamoyili asosida ma'muriy xizmatlar ko'rsatish hamda hudud ixtisoslashuviga mos soliq imtiyozlarini joriy etish investorlar uchun hal qiluvchi omil bo'lgan. Ushbu yondashuvlarni rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan viloyatlarimizda keng qo'llash maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, investitsiyalarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi mintaqaviy siyosatda alohida e'tibor talab qiladigan masala bo'lib qolmoqda. Investitsiya faolligi past bo'lgan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va mahalliy imtiyozlar tizimini takomillashtirish zarur. Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar ulushining o'sishi ijobiy holat bo'lsa-da, ularning asosan yirik loyihalar amalga oshirilayotgan hududlarda jamlanishi kuzatilmoqda; shu bois har bir hududning o'ziga xos salohiyatini (mineral-xomashyo, agrar, turistik, mehnat resurslari) hisobga olgan holda manzilli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish

maqsadga muvofiq. Uchinchidan, investitsiyalarning ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilishi hududlarda qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi, bu esa uzoq muddatda mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi «Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4102-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar. Press-reliz, 24.01.2026. – www.stat.uz
3. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O'Rni. *Gospodarka i Innovacje.*, 53, 205-213.
4. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
5. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(10), 37-44.
6. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.
7. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *Samarali Ta'lim va Barqaror Innovatsiyalar Jurnali*, 1(5), 191-196.
8. Raximova, L. A., Toshov, M. H. (2025). Mintaqaviy iqtisodiyotning tamoyillari va mamlakatimiz iqtisodiyoti bilan bog'liqligi. *European science international conference: Studying the progress of science and its shortcomings*, 97-103.